



## O‘RTA ASRLARDA NASAF VOHASI ALLOMALARINING FIQHIY ILMLAR RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI

<https://zenodo.org/doi/10.5281/zenodo.10791514>

**Xo‘jayorov Asilbek Otabek o‘g‘li**

mustaqil tadqiqodchi

Osiyo texnologiyalar universiteti o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada IX – XII asrlarda Nasaf (Qarshi) vohasida kamol topgan allomalarning islom huquqshunosligi – fiqh ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi va ular tomonidan qoldirilgan ilmiy merosning ahamiyati haqida tarixiy manbalar va so‘nggi yillarda yaratilgan adabiyotlar asosida so‘z yuritiladi.

Islom dini tarqalishi jarayonida turli din va mahalliy urf-odatlar bilan duch kelishi natijasida islom huquqshunosligi – fiqh maktablari yuzaga keldi. Fiqh ilmi musulmon huquqshunosligi va shariat qonun-qoidalarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanuvchi soha bo‘lgani uchun u diniy ilmlar qatoriga kiritilgan.

Movaruonnahrda hanafiy mazhabi tarqala boshladi. Mazkur mazhab ta‘limoti asosida Buxoro va Samarqand shaharlarida Movarounnahr fiqh maktabi tashkil topdi. VIII asrning oxiri – IX asrning boshlarida Nasafda fiqhshunoslik maktablari vujudga kelgan. Movarounnahrning mashhur shaharlaridan biri Nasaf shahri islomning turli ilmlarini o‘zida mujassam etgan zabardast olimlarni voyaga yetkazdi.

**Kalit so‘zlar:** Islom dini, fiqh ilmi, faqih, Nasaf vohasi, fiqh maktabi, hanafiy mazhabi, Abu Muti’ Makhul Nasafiy, Abul Yusr Ali ibn Muhammad Bazdaviy, Ishoq Navqadiy, Abu Hafsi Nasafiy.

## ВКЛАД УЧЕНЫХ ДОЛИНЫ НАСАФ В РАЗВИТИЕ ПРАВОВЫХ НАУК В СРЕДНИЕ ВЕКА

**Ходжаяров Асилбек Отабек угли**

независимый исследователь

Преподаватель Азиатского технологического университета

**Аннотация:** В данной статье говорится о вкладе ученых, выросших в долине Насаф (Карши) в IX – XII вв., в развитие исламской юриспруденции и правоведения и значении оставленного ими научного наследия, основанного на исторических источниках и созданной в последние годы литературе.

В ходе распространения ислама в результате встречи с различными религиями и местными обычаями возникли школы исламского правоведения и фикха. Поскольку наука фикх является областью развития мусульманской юриспруденции и законов шариата, она входит в число религиозных наук.



*В Моваруоннахре начала распространяться направление религии Ханафия. На основе этого учения в городах Бухаре и Самарканде была создана школа правоведения Моваруннахр. В конце VIII – начале IX веков в Насафе были созданы школы юриспруденции. Насаф, один из знаменитых городов Моваруннахра, дал жизнь великим ученым, олицетворявшим различные науки ислама.*

**Ключевые слова:** исламская религия, юриспруденция, правовед, долина Насаф, школа фикха, ханафитская школа, Абу Мути Макхул Насафи, Абул Юср Али ибн Мухаммад Баздави, Исхак Наукади, Абу Хафс Насафи.

## THE CONTRIBUTION OF THE SCHOLARS OF NASAF OASIS TO THE DEVELOPMENT OF LEGAL SCIENCES IN THE MIDDLE AGES

**Khojayorov Asilbek Otabek ogli**

independent researcher

Teacher of the Asian University of Technology

**Abstract:** *This article talks about the contribution of scholars who matured in the oasis of Nasaf (Karshi) in the IX – XII centuries to the development of Islamic jurisprudence and jurisprudence and the importance of the scientific heritage left by them, based on historical sources and literature created in recent years.*

*In the course of the spread of Islam, schools of Islamic jurisprudence and fiqh emerged as a result of meeting with different religions and local customs. Since the science of fiqh is a field dealing with the development of Muslim jurisprudence and Sharia laws, it is included among the religious sciences.*

*The Hanafia sect began to spread in Movarounnahr. Based on the teachings of this sect, the Movarounnahr school of jurisprudence was established in the cities of Bukhara and Samarkand. At the end of the 8th century - at the beginning of the 9th century, schools of jurisprudence were established in Nasaf. Nasaf, one of the famous cities of Movarounnahr, produced great scholars who embodied various sciences of Islam.*

**Keywords:** *Islamic religion, jurisprudence, jurist, oasis of Nasaf, fiqh school, Hanafi school, Abu Muti' Makhul Nasafi, Abul Yusr Ali ibn Muhammad Bazdavi, Ishaq Nawqadi, Abu Hafs Nasafi.*

### KIRISH

Islom dini tarqalishi jarayonida turli din va mahalliy urf-odatlar bilan duch kelishi natijasida VIII – IX asrlarda islom huquqshunosligi – fiqh maktablari yuzaga keldi. Fiqh ilmi musulmon huquqshunosligi va shariat qonun-qoidalarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanuvchi soha bo‘lgani uchun u diniy ilmlar qatoriga kiritilgan. Fiqh – arabchada “bilmoq”, “tushunmoq” yoki “topmoq” degan ma’noni anglatib, islomiy ilmlarning bir qismi bo‘lib, shariat qonun – qoidalarini ishlab chiquvchi musulmon huquqshunosligiga aytiladi. Sha’riy qonun – qoida va huquqlarni biluvchi olimni “faqih” deb ataydi [1].



Fiqh diniy huquqshunoslik sifatida ikki soxa – shariat manbalarini ishlab chiqish (“usul al-fiqh”) [2] va shariatni ma’lum bir sohalarga tatbiq qilish (“furu’ al-fiqh”)dan iborat [3]. VIII asr o‘rtalaridan fiqh ilmi mustaqil ilm sifatida rivojlana boshladi va bu davr islom huquqshunosligining shakllanishida “oltin asr” deb nomlanadi [4]. X asrga kelib musulmon olimlari tomonidan sunniylikdagi eng yirik fiqhiy mazhablar sifatida shofi’iylik, molikiylik, hanafiylik va dovudiylik qayd etilgan. Hanbaliylik mazhabiga mansub faqihlar faqat XII asr boshlariga kelib e’tirof etila boshlangan [5].

### **METODLAR**

Mavzu tarixi umumqabul qilingan tarixiy metodlar-tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida ilmiy tahlil etilgan.

### **MUHOKAMA**

VIII asrning oxiri – IX asrning boshlarida Movarounnahrda hanafiya mazhabi tarqala boshladiyu Mazkur mazhab ta’limoti asosida Buxoro va Samarqand shaharlarida Movarounnahr fiqh maktabi tashkil topdi [6]. Bu yurt faqihlari teran bilimlari, qimmatli asarlari bilan butun islom dunyosida shuhrat qozondi. Faqihlarning davlat hukmron doiralari va xalq ommasiga ta’siri juda kuchli edi [7].

Movarounnahrda fiqhning hanafiy mazhabiga asoslangan shakli ustivor edi [8]. Buning sababi, bir tomondan, IX asrda bu yerda mahalliy fiqh maktabi shakllanishida hanafiy mazhabi asoschisining safdoshi va shogirdi imom Muhammad Shayboniyning shogirdi Ahmad ibn Hafs Abu Hafs Buxoriy (vaf. 832)ning xizmatlari bo‘lsa, ikkinchidan, mazkur mazhabning mezon va tamoyillari mahalliy shart sharoitlarga ko‘proq mos kelar edi. Bundan tashqari mahalliy fiqh maktabining shakllanishiga Balxda mavjud yirik hanafiylik markazining ham ta’siri katta bo‘ldi [9].

XI – XIII asrlarga kelib, Movarounnahrda fiqh ilmi yuksak bosqichiga yetdi. Shu mavzuda izlanish olib borgan turkiyalik olim Yu.Z.Kavakji Qoraxoniylar davri haqida so‘z yuritib, bu hududda uch yuzga yaqin faqih yetishib chiqqanligi, yigirmadan ortiq fatvolar majmuasi, uch yuz ellikdan ortiq fiqhiy asarlar yaratilganligi va shulardan 98% hanafiy fiqhiga oid ekanligini qayd etadi [10].

VIII asrning oxiri – IX asrning boshlarida Nasafda fiqhshunoslik maktablari vujudga kelgan. Movarounnahrning mashhur shaharlaridan biri Nasaf shahri islomning turli ilmlarini o‘zida mujassam etgan zabardast olimlarni voyaga yetkazdi. Nasaf shahri o‘zining faqihlari bilan ko‘proq shuhrat topgan. Ulardan Abu Muti’ Makhul Nasafiy (vaf. 318/930), Abu Ali Husayn Nasafiy (vaf. 424/1034), Najmuddin Abu Hafs Umar Nasafiy (1070-1143), Abulfazl Muhammad Burhon Nasafiy (600-679/1201-1281)ni zikr etish mumkin [11].

**Abu Muti’ Makhul Nasafiy.** Allomaning to‘liq ismi Abu Muti’ Makhul al-Fazl Nasafiy bo‘lib, tavallud sanasi noma’lum, vafoti 318/930 yil. Makhul Nasafiy



o‘z davrining yetuk faqih, mutakallim va mutasavvuf olimi sifatida tanilgan. Allomaning fiqhiy masalalarga oid “ash-Sho‘o” (“Yog‘du”) asari hisoblanib, unda islom dinining arkonlari, xususan namoz o‘qish tartiblariga oid masalalar haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Ushbu asar haqidagi nihoyatda qisqacha ma‘lumot Hoji Xalifaning “Kashf az-zunun” asarida qayd etilgan [12].

Nasaf vohasidan yetishib chiqqan faqihlardan biri **Muhammad ibn Mansur ibn Muxlis Abu Ishoq Navqadiy** (vaf. 1043) bo‘lib, u kishi alloma Abu Ja‘far al-Hiduvoniydan ta‘lim olgan. Navqad – Nasaf yaqinidagi qishloq bo‘lib, alloma nisbasi ana shu qishloq nomiga nisbatan olingan. Abu Ishoq Navqadiy Samarqandda muftiylik va madrasada mudarrislik qilgan. Alloma Samarqandda vafot etgan [13].

**Abdulaziz ibn Ahmad ibn Nasr ibn Solih Shamsul ‘aimma al-Halvoni**y (vaf. 1056) yirik fiqh ulamolaridan. Bu zotning ustozlari Husayn Abu Ali Nasafiy bo‘lgan. Shu bilan birga u kishining o‘zining ham qator shogirdlari bo‘lib, eng mashxuri Shamsul ‘aimma as-Saraxsiydir. Ilmiy merosini “al-Mabsut”, “Kitab al-navadir” (“Nodir narsalar kitobi”), “al-Fatava al-sug‘ro” (“Kichik fatvolar to‘plami”) asarlari tashkil etadi. Allomaning vafot sanasi, qayerda vafot etganligi va nisbasi xususida turli xil fikrlar mavjud [14].

Nasaf vohasida faoliyat ko‘rsatgan hanafiy faqihlaridan biri **Abu Ali Husayn ibn Hizr ibn Yusuf Nasafiy** (vaf. 424/1034) hisoblanadi. U kishi qozilik qilish bilan bir qatorda qilish bilan bir qatorda fiqhiy kitoblar ham tasnif etgan. Alloma o‘z asrining imomlaridan hisoblangan. Uning yana Fashidayjiriy nomi ham mashhur bo‘lgan. Muarrix Sam‘oniyni “Fashidayjiriy”ni Buxoro atrofidagi mavzeldani biri ekanligini yozadi. Qozi Husayn Nasafiyning bunday nom bilan atalishining asosiy sababi uning Ja‘far Usturushaniydan so‘ng qozilik qilganligi bilan izohlanadi. O‘zlaridan esa Buxoroning hanafiy peshvolaridan bo‘lgan shayx, fatvo sohibi Abdulaziz Halvoiy, Muhammad Subaxiyalar ta‘lim olgan [15].

“Favoid al-bahriya” asarida qozi Husayn Nasafiyning fiqh ilmini Abu Bakr Muhammad ibn Fazldan o‘rgangani aytiladi. Bundan tashqari u kishi Buxoroda Abu Amr Muhammad ibn Muhammad ibn Sobir, Ahmad Sanjariy, Bag‘dodda Abu Fazl Aburrohman Zuhriy, Abul Hasan Muhammad, Kufada Abu Abdulloh Ya‘qub Roziy, Marvda Abu Ali Umar Marvaziylardan ta‘lim olgan [16]. Qozi Husayn Nasafiyning fiqh ilmi bo‘yicha “Favoid” va “Fatovo” nomli asarlar yozgan. U 80 yoshlarida Buxoroda vafot etib, Kaloboz qabristoniga dafn etilgan [17].

**Rajo Nasafiy.** Allomaning to‘liq ismi Abu Muhammad ibn Usmon ibn Ibrohim ibn Ahmad ibn Muhammad ibn Fazl ibn Ja‘far ibn Rajo ibn Zar‘a Nasafiy (vaf. 1138). U Movarounnahr va Xuroson allomalari orasida mashhur imom, fatvo berishda davrining peshqadami sanalgan. Uning “Kitob ut-ta‘lika fil-xilof” (“Ixtiloflarni tushuntiruvchi kitob”), “Kitobu kifoyat ul-fuxul fi ilm al-usul” (“Usul ilmi haqida kifoya qiluvchi kuchli kitob”), “Kitob al-munqiz min az-zalili fi masoil



ul-jadali” (“Bahsli masalalarda xatodan qutqaruvchi kitob”), “Kitob as-sullam li dor as-salom fi bayoni ahkomi arkon al-islom” (“Islom ruknlarining hukmlari haqida salomatlikka eltuvchi kitob”), “Kitob al-fusul fil fatovo” (“Fatvolar ajratuvchi kitob”) kabi asarlari mavjud. Qurashiyning “Javohir ul-muzia” (“Yorituvchi gavharlar”) asarida olim haqida muhim ma’lumotlar berilgan [18].

**Qozi Nasafiy.** Abdulaziz ibn Usmon ibn Ibroxim ibn Muhammad Nasafiy (vaf. 533/1138 yoki 563/1167) Buxoroda faoliyat olib borgan [19]. Alloma “**Kitob at-ta’liqa fi-l-xilof**” (“Ixtiloflarni tushuntiruvchi kitob”), “**Kitob kifoyat al-fuhul fi ilmi-l-usul**” (“Usul ilmi haqida kifoya qiluvchi kuchli kitob”), “**Kitob al-munqiz min az-zalali fi masoil-l-jadali**” (“Bahsli masalalarda xatodan qutqaruvchi kitob”), “**Kitob as-sullam li dor as-salom fi bayoni ahkomi arkoni-l-islom**” (“Islom ruknlarining hukmlari haqida salomatlikka eltuvchi kitob”), “Kitob al-fusul fil fatovo” (“Fatvolarni ajratuvchi kitob”) kabi asarlarning muallifi hisoblanadi [20].

### XULOSA

O’rta asrlarda Nasaf vohasi allomalari fihiy yo’nalishda samarali faoliyat olib borishib, o’zlarining asarlari orqali muhim masalalarga yechim topishga hissa qo’shgan.

### ADABIYOTLAR:

1. Kattayev K., Kattayeva G. Buyuk huquqshunos allomalar (Fiqh, hadis, tavsir, kalom ilmi allomalari). – Toshkent: “Qaqnus”, 2020. 28-bet.
2. Nodir Nabijon o’g’li. Usul ul-fiqh haqida saboqlar. – T.: “Toshkent islom universiteti”, 2008. – 140 bet.
3. Shayx Qosim ibn Abdulloh Quvnaviy. Fiqhiy atamalarning izohli lug’ati. – Toshkent: Azon kitoblari, 2020. – 284 b.
4. Сюкияйнен Л.Р. Мусулманское право. – М., 1986. – С.68.
5. Адам Мец. Мусулманский ренессанс. – М., 1973. – С.179.
6. Abdulhakim Sha’riy Juzjoniy. Fiqh ilmi rivojida Markaziy Osiyo faqihlarining o’rni // Toshkent islom universitetining ilmiy – tahliliy Axboroti, 2007 yil 3-son. 18 – 20-betlar.
7. Kamilov M. Movarounnahr fiqh ilmining rivojida Alouddin as-Samarqandiyning o’rni va “Tuhfat al-fuqaho” asarining ahamiyati. Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T., 2000. 35-bet
8. Ahmet Özel. Hanefi fikih alimlari. – Ankara: Turkiye diyanet vakfi yayinlari, 1990. – 784 bet.
9. Бартолд В.В. История Туркестана. – Соб. соч. в 9 т. т.2. Част II. – М., 1963. – С.122.
10. Kavakci Yusuf Ziya. XI ve XII asirlarda Karahaniylar davrinde Mavara’ al-Nahr Islam Nukukcilari. – Ankara, 1976. 305-bet. (322 bet)



11. Muhammad Nosir. Nasaf va Kesh allomalari (IX – XX asrlar). Tazkira. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 2-nashr. – T.: G'afur G'ulom NMIU, 2006. – 128 b.
12. Uvatov U. Abu Muti' Makhul an-Nasafiy // Buyuk yurt allomalari. – T.: O'zbekiston, 2016. 199 – 200-betlar. (424 bet)
13. Шамсиддин Камолиддин. Новый источник по исторической географии Средней Азии. Новейшие исследования сочинения “ал-Канд фикр ʔуламаʔ Самарканд” Абу Хафс ʔУмар ибн Мухаммада ан-Насафи. – Саарбрюскен: ЛАП, 2014. – С.119.
14. Kariev A. Burhon ad-din al-Marg'inoniy va uning fiqhshunoslik tarixidagi o'rni.: Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T., 2001. 37-bet.
15. Abu Sa'd Abdulkarim ibn Muhammad ibn Mansur at-Tamimiy as-Sam'oniyy. Nasabnoma. Tarjimonlar Abdulg'ofur Razzoq Buxoriy va Komiljon Rahimov. – T.: “Hilol-Nashr”, 2017. 39-, 267-betlar. (336 bet)
16. Nasrullayev N. Lutfulloh Nasafiyning “Fiqhi Kaydoniy” asari va unga yozilgan sharh, hoshiyalar tahlili.: Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T., 2012. 39-bet.
17. Abdulhakim Shar'iy Jo'zjoniy. Islom huquqshunosligi, hanafiy mazhabi va O'rta Osiyo faqihlari. – T.: “Toshkent islom universiteti”, 2002. 225-bet. (256 b.)
18. Islom. Ensiklopediya: A – H. Shayx Abdulaziz Mansur tahriri ostida. – T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. 352-bet
19. Aminov H., Primov S. Hanafiy fihqi tarixi, manbalari istilohlari. Mas'ul muharrir Shayx Abdulaziz Mansur. – T.: “Movarounnahr”, 2017. 335-bet.
20. Nasrullaev N. Lutfulloh Nasafiyning “Fiqhi Kaydoniy” asari va unga yozilgan sharh, hoshiyalar tahlili.: Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T., 2012. 41-bet.
21. Рустамов, Р. (2022). СОЦИАЛЬНАЯ ЗАЩИТА КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА. Scientific Collection «InterConf», (118), 41-49.
22. Rustamov, R. R. (2018). MODERN PROPAGANDA TECHNOLOGY AND THEIR MAIN PURPOSE. Научное знание современности, (10), 35-38.